

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2024-yil 28-iyun kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20240628>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2024-yil 28-iyun kuni soat 17:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy manzilida joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining 2023-yil yakunlari bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqish.
4. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish.
5. 2023-yil yakunlari bo'yicha jamiyatda o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko'rib chiqish.
6. "O'zkimyosanoat" AJning 2022-yil 31-dekabrda yakunlangan yillik moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga muvofiq (MHXS) auditi bo'yicha auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.
7. "O'zkimyosanoat" AJning 2023-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik xulosasini ko'rib chiqish.
8. "O'zkimyosanoat" AJning 2023-yil uchun yillik hisobotini ko'rib chiqish.
9. "O'zkimyosanoat" AJning 2023-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibini belgilash.
10. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining amal qilish muddatini uzaytirish.
11. "O'zkimyosanoat" AJning affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 24-iyun holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reyestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2024-yil 28-iyun kuni soat 16:00 da boshlanib, soat 17:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98.

"O'zkiyosanoat" AJ kuzatuv kengashi